XIX ASR AMERIKA SAYOHAT ADABIYOTIDA HARAKAT, MANZARA VA O‘ZLIKNI ANGLASH

Atadjanova Sevara Bekmuratovna
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr Amerika sayohat adabiyotida transport vositalarining (paroxod, poezd, arava, kema) hikoya dinamikasi, makon tasviri va mualliflik pozitsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Sayohat vositalari adabiy matnda nafaqat harakat vositasi, balki muallif tafakkuri, estetik idrok va ichki o‘zlikni anglashda ramziy ahamiyat kasb etgani ko‘rsatib beriladi. Mark Tven, Genri Jeyms, Herman Melvill kabi yozuvchilarning asarlari asosida har bir transport turi qanday poetik va semantik yuklama olgani o‘rganiladi va sayohat vositalari orqali zamonaviy Amerika ruhining qanday ifodalanganini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *sayohat adabiyoti, geopoetika, XIX asr, Mark Tven, Genri Jeyms, paroxod, poezd, arava, kema, identitet, tafakkur, modernizatsiya, makon tasviri.*

Kirish

XIX asr Amerika adabiyotida sayohat janri alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda transport vositalarining ommalashuvi — paroxod, poezd, arava va okean kemalarining keng qo‘llanishi — faqatgina jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga emas, balki adabiy tasvir uslublariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Sayohat vositalari shu davr adiblarining asarlarida nafaqat harakat vositasi, balki estetik idrok, tafakkur oqimi va mualliflik pozitsiyasining

shakllanishida muhim geopoetik obrazga aylangan. Ayniqsa Mark Tven, Genri Jeyms, Herman Melvill kabi yozuvchilar asarlarida transport vositalari hikoyaning tarkibiy va ramziy qatlamlarini belgilovchi element sifatida xizmat qiladi.

Biz maqolada XIX asr Amerika sayohat adabiyotidagi turli transport vositalarining (paroxod, poezd, arava, okean kemasi) hikoya dinamikasiga, tasvir estetikasi va ichki o‘zlikni anglash jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qildik.

Usullar

Ish adabiy-geopoetik tahlil metodiga asoslangan bo‘lib, asosan XIX asr amerikalik yozuvchilarning sayohatga oid asarlari o‘rganildi. Mark Tvenning *Life on the Mississippi*, *Roughing It*, *The Innocents Abroad*, Genri Jeymsning *The American Scene*, shuningdek, Herman Melvillning *Typee* va Richard Henry Dana Jr.ning *Two Years Before the Mast* asarlari tahlil qilindi. Teoretik asos sifatida Adam Hallett, Michael Imbert kabi adabiyotshunoslarning geopoetika va sayohat adabiyoti borasidagi ilmiy ishlari qo‘llanildi.

Natijalar va Tahlil

1. Paroxod va daryo geopoetikasi

Mark Tvenning *Life on the Mississippi* asarida paroxod faqat transport vositasi emas, balki hikoyaviy strukturaning yuragi sifatida tasvirlanadi. Paroxodning suzish tezligi, daryo oqimining o‘zgarishi — bularning bari voqealar rivojiga, muallif ohangiga ta’sir qiladi. Tven yoshligida paroxod kapitanligiga o‘rgangan paytlardagi estetik idrok bilan tajribali navigatsiyachining qarashi o‘rtasidagi farqni quyidagicha ifodalaydi:

“Now when I had mastered the language of this water… All the grace, the beauty, the poetry had gone out of the majestic river!”

Bu epizodda muallif paroxod boshqaruvini o‘zlashtirgan sari daryoga estetik emas, funksional ko‘z bilan qaray boshlaydi. Natijada, paroxod daryoni “o‘qish” vositasiga aylanadi va hikoya uslubidagi o‘zgarish – texnik tafsilotlar ustuvorligi – bunga ishora qiladi.

2. Poezd va modernizatsiya metaforalari

XIX asrning ikkinchi yarmida temiryo‘l transportining rivojlanishi sayohat dinamikasini keskin o‘zgartirdi. Genri Jeyms *The American Scene* asarida poezdda sayohat qilgan paytda manzaralarning tez o‘zgarishini o‘z tafakkuri bilan uyg‘unlashtiradi. Michael Imbert ta’kidlaganidek:

“…a juxtaposition of odd sections or segments that are solely unified by the continuity of Jeyms’s rambling consciousness…”

Bu tarzda poezd harakati tafakkur oqimining strukturasiga ham ta’sir qiladi. Poezd – bu modernizatsiya va fragmentarlik metaforasi, hikoya esa ushbu fragmentlarning ichki uyg‘unligi orqali shakllanadi.

3. Arava – G‘arb sari harakat ramzi

Mark Tvenning *Roughing It* asarida dilijansdagi safar – Nevadaga sayohat – hikoyaning muhim qismini tashkil etadi. Arava harakatining sekinligi hikoyani ketma-ketlik asosida qurishga imkon beradi, bosqichma-bosqich tasvirlar esa Amerikadagi G‘arbiy landshaftni muhim ideologik makon sifatida namoyon qiladi.

Hazil va sarguzasht ohangi esa muallif uslubining yorqin jihatiga aylanadi. Tven bu safarni kulgi bilan ifodalaydi:

“If you are of any account, stay at home and make your way by faithful diligence...”

Bu jumla orqali u sayohatga borish – ayni chog‘da o‘zlikni anglash, mehnatga yo‘liqish va yangi ufqlarni kashf etish demak ekanini kinoyaviy tarzda bayon qiladi.

4. Kema va okean tajribasi

The Innocents Abroad asarida Tven okean laynerida Yevropaga qilgan sayohatini kulgi bilan tasvirlaydi. Kema muhitidagi torlik, to‘lqinlar bilan olishuv, sayohatchilarning kutish va hayrat tuyg‘ulari asarga o‘ziga xos ritm beradi.

Herman Melvill (*Typee*) va Richard Dana Jr. (*Two Years Before the Mast*) kabi mualliflar kema ichidagi ijtimoiy struktura, okean cheksizligi va insoniy imkoniyatlar chegarasini geopoetik tarzda talqin qiladi.

Munozara

Transport vositalari XIX asr sayohat adabiyotida nafaqat harakatning tashkiliy vositasi, balki estetik, ramziy va narrativ element sifatida muhim rol o‘ynaydi. Har bir vosita muallif tafakkuriga, makon tasviriga va hikoya strukturasi rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Paroxod – daryo sivilizatsiyasining ifodasi, poezd – zamonaviylik va tafakkur tezligi, arava – G‘arbiy frontirning mashaqqatli yo‘li, kema esa – kashfiyot va cheksizlik metaforasidir. Ushbu vositalar orqali mualliflar makon, identitet va tafakkur o‘rtasidagi murakkab aloqalarni yoritganlar.

Xulosa

XIX asr Amerika sayohat adabiyoti — bu faqat geografik harakatni emas, balki madaniy, estetik va ichki (psixologik) harakatni ham aks ettiruvchi ko‘p qatlamli adabiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu davrda paroxod, poezd, arava va kema kabi transport vositalari nafaqat harakatni amalga oshiruvchi vosita sifatida, balki hikoyaviy struktura, mualliflik

pozitsiyasi va ong oqimi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi geopoetik unsurlar sifatida ishlatilgan. Har bir harakat shakli – suzish, yurish, haydash, suzib o‘tish – muallifning makon bilan munosabatini, u orqali esa o‘zligini anglash jarayonini ifodalagan.

Paroxod – ayniqsa Mississippi daryosi kontekstida – faqatgina daryo transporti emas, balki Amerika janubining madaniy xotirasi, harakatdagi sivilizatsiya, va tarixiy o‘zgarishlar timsoli sifatida talqin qilingan. Mark Tven daryoni go‘zallik obyekti sifatida ko‘radigan bola nigohidan, uni xavf-xatarga to‘la navigatsiya makoni sifatida ko‘radigan professional kapitan nigohigacha bo‘lgan jarayonni tasvirlash orqali, o‘zlikni anglashning murakkab evolyutsiyasini ko‘rsatadi.

Poyezd esa Genri Jeyms asarlarida tafakkurning modern fragmentarligi bilan uyg‘unlikda talqin qilinadi. Tezlik va texnologiya natijasida manzara uzluksiz harakatda bo‘ladi, bu esa muallif ongida manzaralarning bo‘lak-bo‘lak qabul qilinishiga olib keladi. Shu tarzda poyezd — tafakkur va voqelikning birlashgan makoni sifatida, zamonaviy ongning murakkabligini yoritadi.

Arava va ot-ulovlar esa Amerika G‘arbiga qarab bo‘lgan ekspansiyaning badiiy ifodasi bo‘lib, mashaqqatli yo‘l, yangi makonlarni egallash va o‘zligini sinovdan o‘tkazish tajribasi sifatida ishlatilgan. Mark Tvenning *Roughing It* asaridagi dilijans sayohati – hazil, sarguzasht va haqiqatni izlash o‘rtasidagi kuchli dinamikaning badiiy ifodasidir.

Okean kemalari orqali esa adiblar ichki ruhiy kechinmalar va tashqi cheksizlik o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadilar. Dengiz safarlari insonga yolg‘izlik, kashfiyot va yangi madaniyatlar bilan to‘qnashuv imkonini bergan. Bu esa nafaqat fazoviy harakat, balki madaniy identitetlarning chog‘ishtirilishiga olib kelgan.

Harakat, manzara va o‘zlikni anglash XIX asr Amerika sayohat adabiyotida uzviy bog‘liq konsepsiyalar sifatida shakllangan. Transport vositalari bu harakatning estetik va semantik asosini tashkil qilgan. Ular orqali mualliflar makonni o‘rganadilar, o‘z-o‘zlariga savol beradilar va o‘zligini qayta kashf etadilar. Bu vositalar orqali yaratilgan geopoetik obrazlar adabiy tafakkurda vaqt, makon va subyektiv idrok o‘rtasidagi murakkab aloqani ifodalovchi kuchli ramzlarga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Twain M. Life on the Mississippi. – Boston: James R.Osgood and Company, 1883.
2. Twain M. Roughing It. – Hartford: American Publishing Company, 1872.
3. Twain M. The Innocents Abroad. – Hartford: American Publishing Company, 1869.
4. James H. The American Scene. – New York: Harper & Brothers, 1907.
5. Melville H. Typee: A Peep at Polynesian Life. – New York: Wiley and Putnam, 1846.
6. Dana R. H. Two Years Before the Mast. – New York: Harper & Brothers, 1840.
7. Hallett A. Landscape and Identity in American Travel Narratives of the Nineteenth Century: PhD Dissertation. – Exeter: University of Exeter, 2014.
8. Imbert M. The American Landscape and the Structure of Perception. In: *American Literary Realism*, Vol. 41, No. 2, 2009.